



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



SAUDIYA ARABISTONINING XALQARO-SIYOSIY IDENTIKLIGI

Azizjon Rizayev

Mustaqil tadqiqotchi,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Saudiya Arabistoni, Yaqin Sharq, tashqi siyosat, identiklik, strategiya, Eron, xavfsizlik, mintaqaviy barqarorlik, jahon siyosati, mojarolar, hokimiyat, Ol Saud, geosiyosat, diniy kelishmovchilik.

Annotatsiya: maqolada Saudiya Arabistonining tarixiy xotira, davlat ramzlari va qadriyatlariga asoslangan tashqi siyosiy identikligi tahlil qilinadi. Saudiya Arabistonining tashqi siyosiy identikligi ichki siyosiy muammolar, madaniy o'ziga xoslik, xavfsizlikka tahdidlarga javob berish va ramziy harakatlar kabi bir qancha omillarning kombinatsiyasiga bog'liqligi ko'rsatib beriladi. Yaqin Sharqdagi ziddiyatlar, bu jarayonda diniy va etnik omillarning roli ko'rib chiqiladi. Shuningdek, tashqi siyosat har bir davlatning jahon hamjamiyati va mintaqadagi mavqei hamda obro'sining ko'rsatkichi sifatidagi roli ochib beriladi.

INTERNATIONAL POLITICAL IDENTITY OF SAUDI ARABIA

Azizjon Rizayev

Independent Researcher,

Tashkent State University of Oriental Studies

ABOUT THE ARTICLE

Keywords: Saudi Arabia, Middle East, foreign policy, identity, strategy, Iran, security, regional stability, world politics, conflicts, power, Al Saud, geopolitics, religious discord.

Abstract: This article analyzes Saudi Arabia's foreign policy identity based on historical memory, state symbols, and values. It demonstrates that Saudi Arabia's foreign policy identity depends on a combination of several factors, including internal political issues, cultural specificity, responses to security threats, and symbolic actions. The conflicts in the Middle East and the role of religious and ethnic factors in this process are examined. Furthermore, the article elucidates the role of foreign policy as an indicator of each state's

МЕЖДУНАРОДНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ ИДЕНТИЧНОСТЬ САУДОВСКОЙ АРАВИИ

Азизжон Ризаев*Независимый исследователь,**Ташкентский государственный университет востоковедения*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Саудовская Аравия, Ближний Восток, внешняя политика, идентичность, стратегия, Иран, безопасность, региональная стабильность, мировая политика, конфликты, власть, Аль Сауд, геополитика, религиозные разногласия.

Аннотация: В статье анализируется внешнеполитическая идентичность Саудовской Аравии, основанная на исторической памяти, государственных символах и ценностях. Показано, что внешнеполитическая идентичность Саудовской Аравии зависит от комбинации нескольких факторов, таких как внутриполитические проблемы, культурная специфика, реагирование на угрозы безопасности и символические действия. Рассматриваются конфликты на Ближнем Востоке и роль религиозных и этнических факторов в этом процессе. Кроме того, раскрывается роль внешней политики как показателя положения и престижа каждого государства в мировом сообществе и регионе.

KIRISH.

Saudiya Arabistonining diniy va siyosiy transformatsiyasi xalqaro munosabatlar va Yaqin Sharq tadqiqotlari sohasida alohida qiziqish uygʻotmoqda. Bu jarayon mamlakatni modernizatsiya qilish va uni global tendensiyalarga moslashtirishga qaratilgan bir qator islohotlarni oʻz ichiga oladi. Bunda anʼanaviy diniy va madaniy asoslarni saqlab qolishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Hozirda Saudiya Arabistoni oʻzini islom dini anʼanalarining tayanchi sifatida namoyon etishda davom etmoqda. Diniy aqidalar mamlakatning milliy oʻzligi, siyosiy tizimi va tashqi siyosatining asosini tashkil etadi. Saudiya Arabistonining mazkur yoʻnalishdagi saʼy-harakatlari nafaqat mamlakatning ichki siyosiy dinamikasiga, balki butun Yaqin Sharq mintaqasidagi geosiyosiy vaziyatga sezilarli taʼsir koʻrsatmoqda.

Saudiya Arabistonda diniy eʼtiqod va qabilaviy anʼanalar uzoq vaqt davomida milliy identifiklikning asosiy tayanchlari boʻlib kelgan. Mamlakat aholisi oʻz vatanini dunyodagi "eng islomiy" davlat sifatida qabul qiladi. Biroq soʻnggi yillarda bu borada muayyan oʻzgarishlar kuzatilmoqda. Valiahd shahzoda Muhammad bin Salmon rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlar milliy identifiklikning diniy komponentini maʼlum darajada yumshatishga qaratilgan. 2017-yilda Ar-Riyodda oʻtkazilgan investitsiya forumida valiahd shahzoda mamlakatning istiqboldagi rivojlanish konsepsiyasini belgilab berdi. U "yosh jamiyatning intilishlariga javoban" Saudiya Arabistoni "moʻtadil islomga, ochiq dunyoga, barcha dinlar, urf-odatlar va xalqlarga nisbatan bagʻrikenglikka qaytish orqali diniy ekstremizmni bartaraf etish"ni maqsad

qilganini ta'kidladi¹. Uning mazkur bayonoti Saudiya Arabistonining an'anaviy qadriyatlarni saqlagan holda jamiyatni modernizatsiyalash va global jarayonlarga moslashtirish yo'lidagi intilishlarini aks ettiradi.

Saudiya Arabistonining tashqi siyosiy identikligi nafaqat Yaqin Sharq mintaqasida, balki rasmiy Ar-Riyodning xalqaro maydondagi tashqi siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Uning ichki siyosiy vaziyatga ta'siri, ommaviy safarbarlik va boshqa davlatlar, ayniqsa, Eron bilan ziddiyatlar mintaqa barqarorligi va jahon siyosati uchun jiddiy oqibatlariga olib keladi. Saudiya Arabistonining tashqi siyosat mahkamasi o'zining funksional vazifalaridan tashqari mamlakatdagi ichki siyosiy vaziyatga ta'sir qiluvchi muammolarni hal qilish jarayonida ham ishtirok etadi. Ar-Riyodning tashqi siyosatdagi muvaffaqiyatini to'plangan ichki siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, ommaning safarbarligini ta'minlash va Podshohlikning oliy missiyasi uchun moddiy manfaatlarni qurbon qilishga tayyorligini shakllantirish uchun kompensatsiya sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Hozirda tashqi siyosat davlat maqomi va elitalarining mintaqaviy va global miqyosdagi obro'sining ko'rsatkichiga aylandi. U davlatning madaniy identikligini ta'kidlash va mustahkamlash, alohida rolga da'vo qilish va tarixning o'z versiyasini va uning tarixiy va siyosiy narrativini qat'iyat bilan himoya qilishga tayyor bo'lish uchun mo'ljallangan. Bu Yaqin Sharqda eng aniq va ravshan namoyon bo'ladi, bu yerda davlat qurish jarayonlari tugallanmagan va jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Etno-konfessiyaviy omil muhim rol o'ynaydigan mintaqada mojarolar hali ham keskin bo'lib, qo'rquv va ishonchsizlik raqibning niyatlari va imkoniyatlarini adekvat baholashga to'sqinlik qiladi. Ularning hal qilinishiga o'zaro tahdidlar, hatto yetarli kuch bilan qo'llab-quvvatlanmasa ham, atrof-muhit tomonidan mumkin deb qabul qilinishi to'sqinlik qilmoqda. Saudiya Arabistoni ushbu mintaqaning yaqqol vakili bo'lib hisoblanadi. Saudiya Arabistonining siyosiy yo'nalishi, uning hozirgi arab dunyosida va undan tashqarida yo'llanmalari global mafkuralar emas, balki elitalarning davlat chegaralaridan tashqarida ta'sirini ta'minlashga qodir bo'lgan konfessional va etnik jihatdan birlashtirilgan kuchlardir.

Davlat xavfsizligiga tahdidlar tashqi siyosat va/yoki harbiy reaksiyani shakllantiruvchi omillardir. Ular obyektiv va moddiy, ko'payishi yoki kamayishi mumkin, ularni tekshirish mumkin va ularning xavfini baholash qiyin emas. Shunga ko'ra, tahdidlarga javob ular keltiradigan xavf bilan taqqoslanishi kerak. Aslida, bu har doim ham sodir bo'lmaydi, chunki kiber davrda tahdidlarning o'zi kamroq aniq bo'lishi mumkin va ularga munosabat ba'zan nafaqat raqibga ta'sir qilish, balki o'z imkoniyatlarini namoyish etish, boshqalarga o'rgatish usuliga aylanadi, atrofdagilarga saboq berish, ularni o'zlaridan qo'rqishga majbur qilish va hokazo.

Ramziy siyosat nuqtayi nazaridan Saudiya Arabistoni tashqi siyosiy xatti-harakatlarining bir necha jihatlari diqqatga sazovordir. Birinchidan, bu mojaroning tez avj olishi, shuningdek, uning namoyishkorona tahdidli tabiati. Diplomatik aloqalar va xalqaro siyosatdagi blokadalarning uzilishi, agar jiddiy asoslar mavjud bo'lsa, boshqa mintaqadagi davlatlar tomonidan adekvat javob choralari deb hisoblanishi mumkin edi. Muayyan davlatning siyosatidan noroziligini

¹ Saudi Crown Prince pledges elimination of 'what is left of extremism' in near future.: <https://www.arabnews.com/node/1182831/saudi-arabia>.

namoyish qilish bunday choralarni o'z ichiga olmaydi, ammo Saudiya Arabistoni uchun diplomatik munosabatlarni o'zi uchun kerak paytda uzi odatiy holdir².

Saudiya Arabistoni va Eron o'rtasidagi raqobat ham jiddiy tizimli mojaroga aylandi. 2003-yilda Iroqda Saddam Huseyn tuzumi ag'darilganidan keyin Eronning imkoniyatlari oshganligi, shialar mamlakatda yetakchi o'rinlarni egallashga muvaffaq bo'lganligi bilan bog'liq edi. Iroqda sodir bo'lgan voqealar arab davlatlaridagi sunniylar jamoasida Eron tahdidi haqidagi xavotirlarni kuchaytirdi. Saudiya Arabistoni Eron mahalliy shia jamoalari va ularning tashkilotlaridan o'z manfaatlari uchun foydalanishi, shuningdek, arablar orasidan vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan boshqa kuchlarni qidirishi mumkinligidan qo'rqishini bildirdi. 2016-yil boshida mojaro keskin avj oldi. Ar-Riyodda shia yetakchisi Nimr an-Nimrning qatl etilishiga qarshi Saudiya Arabistonining Tehrondagi elchixonasi oldida katta namoyishlar va tartibsizliklar uyushtirildi³.

Reaksiyaning jiddiyligi nafaqat Saudiya Arabistonining mintaqaviy munosabatlari tizimida namoyon bo'ladi, balki undan tashqariga chiqadi. Xulq-atvorning mustaqilligini namoyish etish istagi yoki ehtiyoji (tashqi va ichki auditoriya uchun), an'anaviy yo'nalishga rioya qilishga tayyorligi, sherikning ichki ishlarga aralashishning bir ishorasi ham jiddiy oqibatlariga olib kelishi haqida ogohlantirishi Saudiya Arabistoni va Kanada o'rtasidagi inqirozga olib keldi. 2018-yil avgust oyi boshida Saudiya Arabistoni Kanadadagi elchisini chaqirib olish va barcha yangi savdo va investitsiya operatsiyalarini muzlatish to'g'risida e'lon qildi. Bunga Saudiya Arabistonidagi Kanada elchixonasi va tashqi ishlar vazirining mamlakatda hibsga olingan huquq himoyachilarini ozod qilishga chaqirig'i sabab bo'lgan⁴.

Saudiya valiahd shahzodasini iqtisodiy yo'qotishlarga qaramay, shu tarzda harakat qilishga undagan sabablar hali ham to'liq aniq emas. Ba'zi tahlilchilar buni aholiga Podshohlikdagi yagona islohotlar valiahd shahzoda Muhammad bin Salmon tomonidan ishlab chiqilgan islohotlar ekanligi haqida yana bir ogohlantirish sifatida ko'rishmoqda⁵.

Ammo bu saudiyalik bloger Raif Badaviy va uning singlisini ozod qilishga chaqiriq edi. Raif Badaviy 2012-yilda Podshohlik din peshvolari va huquq-tartibot organlarini tanqid qilgani va islom dinini haqorat qilganlikda ayblanib hibsga olingan. Diniy doiralar pozitsiyasini inobatga olgan holda bu masalada qat'iy bo'lishlik Muhammad bin Salmon uchun juda muhim edi. Tahdidni idrok etish nuqtayi nazaridan an'ana bilan chambarchas bog'liq bo'lgan va muayyan xatti-harakatlarni belgilaydigan subyektiv omillar muhim rol o'ynashi mumkin. Ba'zi hollarda status masalalari ustuvor vazifaga aylanadi va shuning uchun amerikalik siyosatshunos Styuart Kaufmanning so'zlariga ko'ra, "an'anaviy liderga hurmatni rad etish yoki ichki guruh vakillarini

2 Руденко Л.Н., Соловьева З.А. Лига арабских государств и интеграционные процессы в арабском мире. -М.: Институт Ближнего Востока, 2007. С. 25.

3 Ближневосточный разрыв: ряд стран прекратил дипломатические отношения с Ираном // РИА Новости, <https://ria.ru/world/20160104/1354500979.html>.

4 Напряженность между Саудовской Аравией и Канадой: история конфликта // РИА Новости, 07.08.2018. <https://ria.ru/world/20180807/1526090606.html>.

5 Cook S.A. Mohammed bin Salman Is Weak, Weak, Weak // Foreign Policy, 07.08.2018. <https://foreignpolicy.com/2018/08/07/mohammed-bin-salman-is-weak-weak-weak>.

og'zaki ravishda suiiste'mol qilish kuchli reaksiyaga yoki hatto tashqi guruhga nisbatan zo'ravonlik ishlatishga olib kelishi mumkin"⁶.

2017-yil 5-iyunda Saudiya Arabistoni va Qatar o'rtasidagi munosabatlarda boshlangan inqirozning keskinlashishi chuqur sabablarga asoslangan edi. Shu munosabat bilan Qatar inqirozi tomonlar o'rtasidagi haqiqiy qiyinchiliklar va qarama-qarshiliklarni, shuningdek, rahbarlarning mintaqadagi roli va mavqei haqidagi an'anaviy tasavvurlarini ko'rsatdi. Qatar ar-Riyodga dushman bo'lgan "Musulmon birodarlar" tashkilotini qo'llab-quvvatladi va kuchli media resursi "Al-Jazira" axborot kanali orqali global axborot maydoniga kirdi, bu ba'zan saudiyaliklarning siyosatini nomaqbul ko'rib chiqishga imkon berdi. Qatar gazni suyultirish texnologiyasini tatbiq etish orqali, iqtisodiy jihatdan Saudiya Arabistoni Podshohligining quvurlari tranzitiga bog'liqligidan xalos bo'ldi. Energetika sohasidagi mustaqillik Dohaga siyosiy mustaqillikni ham berdi. Ammo bu holat Ar-Riyod nuqtayi nazaridan Qatar tomonidan "qizil chiziq"ni kesib o'tish va arab dunyosida o'z mijozlariga ega bo'lish sifatida baholandi⁷.

Qatar siyosatining yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlari to'satdan paydo bo'lmadi. Qatarga qarshi "yurish"ni boshqargan Saudiya Arabistoni Podshohligi da'volari uzoq vaqt davomida chuqur mintaqaviy inqirozga erishgunga qadar to'plangan. Bu Qatarning hech qanday maxsus tahdidlariga emas, balki o'z-o'ziga hurmatning kamsitilishiga va hurmat ko'rsatmagan qarindoshlariga saboq berish istagiga asoslangan edi: Ol Soniyning Qatar hukmron oilasi uzoq vaqt Maadid urug'ining boshqa oilalari bilan yashagan. Oilaning ajdodlaridan biri Qatar yarim oroliga taxminan 1750-yilda kelgan. Uzoq vaqt davomida ar-Riyodda Dohaning mustaqil, o'z xohish-irodasi siyosati bilan norozilik to'planib kelmoqda, bu ar-Riyodni mintaqadagi tabiiy gegemon sifatida hurmat qilmaydi va Ol Soniy oilasining nufuzli mintaqaviy o'yinchi sifatida mustaqil rolga bo'lgan da'volari, uning ambitsiyalari Arabiston yarim orolidan va hatto butun Yaqin Sharqdan tashqariga chiqadi⁸.

Shu bilan birga, tashqi siyosatni shakllantirish va olib borishda tarixiy xotira alohida rol o'ynaydi. Bu tushuncha juda noaniq, chunki o'tmish har doim mifologik versiyada paydo bo'ladi va u bizdan qanchalik uzoq bo'lsa, shunchalik noaniq va o'zgaruvchan ko'rinadi. Elitalarning vazifalari siyosiy "mos" o'tmish deb atash mumkin bo'lgan narsalardan foydalanishga qaratilgan. Ular ushbu tarixiy faktlarni tashqi siyosiy xatti-harakatlar modellarini oqlashi kerak bo'lgan afsona va ramzlar bilan birgalikda ishlatishga tayyor, hukmron elita tomonidan qabul qilingan qarorlarni raqobatsiz deb taqdim etishadi. Saudiya Arabistoni va Qatar o'rtasidagi inqirozni ham shu tomondan ko'rish mumkin.

Keyinchalik inqiroz chuqurlashishda davom etdi. Saudiya Arabistoni podshosining taklifiga qaramay, Qatar amiri 2018-yil dekabrda Fors ko'rfazi arab mamlakatlari hamkorlik kengashiga a'zo davlat-rahbarlarining navbatdagi sammitida qatnashmasdan (FKADHK) o'z o'rniga Tashqi ishlar bo'yicha davlat vazirini yubordi⁹.

6 Kaufman S.J. A Symbolic Politics Theory of War (Paper Prepared for Presentation at ISAC-ISSS Conference Austin). University of Delaware, Texas, 2014. P. 7.

7 Добров Д. В чем истинные причины конфликта Саудовской Аравии и Катара? // Иносми.Ру, 06.07.2017. <https://inosmi.ru/politic/20170706/239743711.html>.

8 Наумкин В. Катарский кризис: что дальше? // РСМД. Аналитика и комментарии, 11.06.2017. <http://russiancouncil.ru/analytics-and-comments/analytics/katarskiy-krizis-chto-dalshe/>

9 Страны Персидского залива не хотят изменений в работе ССАГПЗ из-за Катара // РИА Новости, 09.12.2018. <https://ria.ru/20181209/1547693761>.

Namoyish va ramziy harakatlar orasida Saudiya Arabistonining Istanbuldagi Bosh konsulligi hududida saudiyalik jurnalist Jamol Xashoggiyning yo'q qilinishi ham bor. Jamol Xashoggiy nafaqat hukumatni tanqid qiluvchi dissident jurnalist, balki Saudiya jamiyatining eng yuqori qatlamlariga mansub, yetakchi siyosatchilarga kirish imkoniga ega va muhim ma'lumotlarga ega edi. London iqtisodiyot maktabining Yaqin Sharq markazi professori Madaviy al-Rashid ta'kidlaganidek, Ar-Riyod nuqtayi nazarida "Podshohlik saroyidan chiqqan xoinni yo'q qilish holati" barcha muxolifat vakillari uchun saboq bo'lishi kerak edi. J.Xashoggiy uzoq vaqtdan beri Saudiya Arabistonida ta'qib qilingan turli guruhlar, partiyalar va harakatlarning va, birinchi navbatda, "Musulmon birodarlar"ning panohi bo'lib kelgan. Bu Podshohlikning maxsus xizmatining "xavfsiz" Turkiyaga qochishga umid qilgan har bir muxolifatchiga nisbatan ogohlantirishi edi.

Davlatning e'lon qilingan siyosiy qadriyatlari va tamoyillari aslida davlat tomonidan ilgari surilgan va identifikatsiya siyosati orqali ramziy ravishda uzatiladigan narsalardan farq qilishi mumkin. Belgilangan qadriyatlar va haqiqat o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni ichki siyosatda kuzatish oson. Ramziy siyosatni o'rganishga asos solgan amerikalik olim M.Edelman buni quyidagicha izohlaydi: "Siyosat tomoshabinlar uchun sport turi sifatida va o'ziga xos va sezilarli foyda olish uchun foydalaniladigan uyushgan guruhlarining siyosiy faoliyati o'rtasidagi farq siyosiy jarayonda ramziy shakllarni tan olish uchun juda muhimdir"¹⁰.

Agar qadriyatlar davlat va nodavlat subyektlarning tashqi siyosiy xatti-harakatlarining asoslaridan biri sifatida e'lon qilinsa, ular va ularni amalga oshirish usullari o'rtasidagi tafovut shunchalik katta bo'lishi mumkinki, bu qadriyatlarning o'zini obro'sizlantiradi. Shunday qilib, adolat uchun kurash o'ta shafqatsizlik bilan mukammal birlashtirilgan va demokratiyani targ'ib qilish harbiy bosqinchilik bilan birlashtirilgan. Shaxsni va mustaqil rivojlanish huquqini tasdiqlash amaliyoti konservativ ong ustun bo'lgan an'anaviy hududning qadriyatlari o'ziga xoslikning asosiy belgisiga aylanishiga olib keldi. Modernizatsiya maydoni bilan bir qatorda "an'analar maydoni mavjud: unda irsiy, til, diniy, etnik va subetnik madaniy namunalar kuchli"¹¹.

Yaqin Sharqda identiklik masalalari ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni tasvirlaydi, nizolarni shakllantiradi va ularni hal qilishga to'sqinlik qiladi. Mafkura o'ziga xos tarzda tashqi siyosiy xatti-harakatlarga aylanadi, bu yerda ommaviy e'lon qilingan maqsadlar va ularga erishish yo'llaridan chetga chiqish juda keng tarqalgan amaliyotdir. Ideallar haqidagi g'oyalar taktik og'ishlar va tuzatishlar uchun keng joy qoldiradi, lekin tashqi siyosat uchun asosiy ahamiyatini saqlab qoladi. Mafkuraviy asos saqlanib qolmoqda, ammo uning ichida variativlik bo'lishi mumkin, bu jamiyatdagi muayyan qadamlarning ruxsat etilishi haqidagi hukmron g'oyalar bilan cheklangan.

Bunday o'zgaruvchanlikka Saudiya Arabistoni valiahd shahzodasi Muhammad bin Salmonning Isroil bilan munosabatlarni normallashtirish muammosiga davlatning yangi yondashuvlarini aniqlashga urinishi misol bo'la oladi. 2017-yilda Saudiya Arabistonining Falastin-Isroil muammosi bo'yicha pozitsiyasi yangi mazmunga ega bo'lishi mumkinligi haqida ishoralar mavjud edi. Buni Saudiya Umumiy razvedka xizmatining sobiq direktori Turkiy al-Faysal va Strategik tadqiqotlar markazi direktori general Anvar Ishqiyning bayonotlari tasdiqladi. Falastin muammosini hal qilmasdan Isroilning arab dunyosi bilan munosabatlarini

¹⁰Edelman M.J. Politics as Symbolic Action. Mass Arousal and Quiescence. Chicago: Markham Publ., 1971. P. 5.

¹¹Панарин С.А. Центральная Азия: интеграционный потенциал и перспективы миграции. Миграция русскоязычного населения из Центральной Азии: причины, последствия, перспективы / Под ред. Г. Витковской. Научные доклады. Вып. 11. М.: Московский центр Карнеги, 1996. С. 25.

normallashtirib bo'lmashligi aniq. Boshqa tomondan, ular Quddusning bo'linishi masalasi Isroil va Falastin o'rtasidagi muzokaralarning yakuniy bosqichida muhokama qilinishi mumkinligiga ishora qilishdi¹².

Isroil bilan munosabatlarni yaxshilash g'oyasi Saudiya Arabistonida va umuman arab dunyosida turli fikr mulohazalarni uyg'otdi. Saudiya Arabistonining siyosati noto'g'ri talqin qilingani bois Ar-Riyod radikal ritorikaning nishoniga aylandi. Falastinda Saudiya Arabistoni valiahdi Muhammad bin Salmonning suratini televizion kameralar oldida yoqishdi, turli ijtimoiy tarmoqlarda unga nisbatan g'azabli fikrlar bildirildi. Saudiya Arabistoni podshohi Salmon bin Abdulaziz ol Saud mamlakatning arab dunyosidagi mavqei va obro'sining pasayishi mumkinligidan havotirga tushib, vaziyatni nazorat qilishni o'z qo'lga oldi. Natijada Podshohlikdagi tartibsizliklar to'xtab, Isroil odatdagidek dushman pozitsiyasiga qaytdi¹³.

Saudiya podshohining bunday keskin reaksiyasini vaziyatdan kelib chiqish deb baholash mumkin. Podshohlik ichida va tashqarisida tanqidchilarning mavjudligi Ar-Riyodni ehtiyot bo'lishga va Falastin masalasida arablarning birdamligi shubha ostiga qo'yilishi mumkin bo'lgan "qizil chiziqlar"ni ochiqchasiga kesib o'tmaslikka majbur qiladi. Shu nuqtayi nazardan, Saudiya Arabistonining Eronga qarshi kurashni har qanday yo'l bilan davom ettirish zarurati va Falastin muammosini hal qilish zarurati o'rtasidagi bog'liqlik juda oqilona ko'rinmasligi mumkin. Ar-Riyodda arab dunyosidagi Falastinliklarga nisbatan har qanday mashhur bo'lmagan qarorni o'z vakolati bilan "muqaddaslash"ga tayyor partiya sifatida harakat qilish uchun hech qanday sabab yo'q. Hozirgi Saudiya hukmdorlari o'zlarini eng konservativ diniy qanotning ichki tanqidiga duchor qilish uchun kamroq motivlar mavjud.

Yuqorida zikr etilganlardan kelib chiqib, qayd etish mumkinki, Yaqin Sharqdagi xalqaro munosabatlar ramziy siyosat elementlarini o'z ichiga oladi. Saudiya Arabistonining tashqi siyosat strategiyasi nafaqat Yaqin Sharq mintaqasida, balki xalqaro maydonida muhim ahamiyatga molik. Ichki siyosatdan kelib chiqqan holda tashqi siyosat qarorlar va harakatlar majmuasi sifatida tarixiy narrativni, aktorlar identikligi haqidagi tasavvurni o'ziga xos tarzda talqin qiladi. Tashqi siyosatni amalga oshirishdagi muvaffaqiyatlar ko'pincha Saudiya hukumati tomonidan erishilayotgan yutuqlarning ramzi sifatida talqin qilinadi. Ramzlar va qadriyatlar Saudiya Arabistonning arab dunyosi bilan munosabatlari xususiyatini belgilaydi. Saudiya Arabistonida din davlatdan diniy muassasalarning ajralishiga to'sqinlik qiladi. Jamiyatdagi parokandalik, mahalliy identikliklar bevosita tashqi siyosatga ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Руденко Л.Н., Соловьева З.А. Лига арабских государств и интеграционные процессы в арабском мире. –М.: Институт Ближнего Востока, 2007. – С. 25.
2. Ближневосточный разрыв: ряд стран прекратил дипломатические отношения с Ираном // РИА Новости, 04.01.2016. <https://ria.ru/world/20160104/1354500979.html>.
3. Напряженность между Саудовской Аравией и Канадой: история конфликта // РИА Новости, 07.08.2018. <https://ria.ru/world/20180807/1526090606.html>.
4. Young K.E. Saudi Arabia's Problem Isn't the Canada Fight, It's Capital Flight // Bloomberg Opinion, 17.08.2018.

¹²Perry S. With Iran as the Real Enemy, Saudi-Israel Ties Will be Based on Interests // YNetNews.com. <http://www.ynetnews.com/articles/0,7340,L-4987188,00.html>.

¹³ Al-Jayoussi, Khaled. The Story of the Normalization in Two Different Scenes // Rai al-Youm (Independent Arabic daily), 06.08.2018.

5. <https://www.bloomberg.com/view/articles/2018-08-17/saudi-arabia-s-problem-not-the-canada-fight-but-capital-flight>.
6. Cook S.A. Mohammed bin Salman Is Weak, Weak, Weak // Foreign Policy, 07.08.2018. <https://foreignpolicy.com/2018/08/07/mohammed-bin-salman-is-weak-weak-weak>.
7. Kaufman S.J. A Symbolic Politics Theory of War (Paper Prepared for Presentation at ISAC-ISSS Conference Austin). University of Delaware, Texas, 2014. P. 7.
8. Qatar Row: Saudi and Egypt among Countries to Cut Doha Links // BBC. News, 05.06.2017. <https://www.bbc.co.uk/news/world-middle-east-40155829>.
9. Добров Д. В чем истинные причины конфликта Саудовской Аравии и Катара? // Иносми.Ру, 06.07.2017. <https://inosmi.ru/politic/20170706/239743711.html>.
10. Наумкин В. Катарский кризис: что дальше? // РСМД. Аналитика и комментарии, 11.06.2017. <http://russiancouncil.ru/analytics-and-comments/analytics/katarskiy-krizis-chto-dalshe/>
11. Малинова О.Ю. Проблема политически «пригодного» прошлого и эволюция официальной символической политики в постсоветской России // Политическая концептология. №1, 2013. С. 114-130.
12. Страны Персидского залива не хотят изменений в работе ССАГПЗ из-за Катара // РИА Новости, 09.12.2018. <https://ria.ru/20181209/1547693761>.
13. Al-Rasheed Madawi. Jamal Khashoggi's Disappearance Proves Saudi Arabia Is a Rogue State // Middle East Eye, 08.10.2018. <https://www.middleeasteye.net/columns/defender-realm-did-jamal-khashoggiknow-too-much-1084333312>
14. Гигаури Д.И. Политический миф и ритуал в структуре современной символической политики / дисс. ... канд. полит. наук; СПбГУ, 2016. С. 114.
15. Edelman M.J. Politics as Symbolic Action. Mass Arousal and Quiescence. Chicago: Markham Publ., 1971. P. 5.
16. Панарин С.А. Центральная Азия: интеграционный потенциал и перспективы миграции. Миграция русскоязычного населения из Центральной Азии: причины, последствия, перспективы / Под ред. Г.Витковской. Научные доклады. Вып. 11. - М.: Московский центр Карнеги, 1996. С. 25.
17. Burton J. Conflict: Resolution and Provention. New York: St. Martin's Press,
18. Истомин И.А. Логика поведения государств в международной политике. - М.: Аспект Пресс, 2018. С. 131.
19. Perry S. With Iran as the Real Enemy, Saudi-Israel Ties Will be Based on Interests // YNetNews.com. <http://www.ynetnews.com/articles/0,7340,L-4987188,00.html>.
20. Al-Jayoussi, Khaled. The Story of the Normalization in Two Different Scenes // Rai al-Youm (Independent Arabic daily), 06.08.2018.

